XALQ DEPUTATLARI QO‘SHKO‘PIR TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 16-may VII-12-55-12-172-K/25 Qo‘shko‘pir tumani

Qo‘shko‘pir tumani Adolat mahallasida joylashgan nomsiz deb topilgan qabristonni nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonunining 10-moddasiga muvofiq “Geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-son qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2025-yil 7-martdagi 01-19-09/2329-son murojaatnomasi va unda qayd etilgan Qo‘shko‘pir tumani Adolat mahallasida joylashgan nomsiz deb topilgan qabriston nomiga Xudoybergan bobo nomini berish to‘g‘risidagi takliflari Respublika toponomika komissiyasida ko‘rib chiqilib, bu bo‘yicha ekspertiza xulosasi kelganligini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6, 24- moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2025-yil 7-martdagi 01-19-09/2329-son murojaatnomasi va tuman hokimining qabriston nomlarini o‘zgartirish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

2. Qo‘shko‘pir tumani Adolat mahallasida joylashgan nomsiz deb topilgan qabriston nomiga Xudoybergan bobo nomini berish yuzasidan taklif ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman statistika bo‘limi (A.Sultanov), tuman obodonlashtirish boshqarmasi (Y.Matkarimov) tuman hokimligi bilan birgalikda nomlari o‘zgartirilgan qabristonlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Mazkur qaror “Hayot ko‘zgusi” gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Erkinov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi  AXMEDOV SHUXRAT KURVONDURDIYEVICH

Xalq deputatlari Qo‘shko‘pir tumani
Kengashining
2025-yil 16-maydagi
VII-12-55-12-172-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Qo‘shko‘pir tumani Adolat mahallasidagi nomsiz deb topilgan qabristonga Xudaybergan bobo nomini berish to‘g‘risida ma’lumot

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bo‘g‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tamonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining Xulosasi
1	Qabriston	Adolat mahallasi	Nomsiz	Xudaybergan bobo	**Xudayberganbobo-** “Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilishi” qoidalari asosida me’yorlashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.